

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIMI VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

“EKOLOGIYA VA GEOGRAFIYA” kafedrası

22-16 guruh talabasi

Latipova Nilufarning

EKOLOGIYA ASOSLARI fanidan

“O‘zbekistonda qo‘roqxonalar va ularning ahamiyati”

mavzusida tayyorlagan

KURS ISHI

Qabul qildi:

A. Kenjayev

Guliston- 2017

MUNDARIJA

	KIRISH	3-4
	ASOSIY QISM	
I.BOB.	ALOHIDA MUHOFAZALANADIGAN HUDUDLAR	
1.1.	Alohida muhofazalanadigan hududlar	5-8
1.2.	Qo'riqxonalar va ularning ahamiyati	9-12
II.BOB.	O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARI	
2.1.	O'zbekiston qo'riqxonolari	13-17
2.2.	Tog' - o'rmon qo'riqxonolari	18-22
2.3.	Cho'l o'rmon qo'riqxonolari	23-29
III BOB	QO'RIQXONALARNING AHAMIYATI	
3.1.	Atrof muhitni muhofaza qilishda qo'riqxonalarning ahamiyati	30-33
3.2.	Qo'riqxonalarda uchrovchi turlar	34-35
	XULOSA	36-37
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	38-39

KIRISH

Ilmiy-texnika taraqqiy etgan asrda Erning tabiiy resurslari jiddiy antropogen ta'sirlarga duch kelgani tufayli tabiat muhofazasi zamonaning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Shu munosabat bilan landshaft qatlamlari, joylarda bioxilma-xillikni saqlashda muhim o'rin tutadigan muhofaza etiladigan tabiat hududlari ahamiyati tobora ortib bormoqdada. Bugun O'zbekiston Respublikasining ko'plab qo'riqxonalar va tabiat milliy bog'lari yirik hududiy ilmiy markazlar sifatida ifoda etiladi.

Ulgayib kelayotgan avlodning yashashi uchun qulay sharoitni ta'minlashga yo'naltirilgan, uzatsni qamragan ekologik siyosat milliy tabiiy bog', qo'riqxonalar, biosfera rezervatlarni o'zida jamlagan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni bunyod etishda ko'zga tashlanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat mutanosibligini saqlashda betakror, favqulodda muhim o'rin tutadi, ular ekologik barqarorlik va inson yashashi uchun zarur sharoitni saqlash bilan bog'liq bo'lgan tabiiy ekotizim o'chogidir.

Bioxilma-xillikni saqlash sohasida davlat siyosati ularni muhofaza etishga, ulardan oqsilona foydalanish va takror kupaytirish va qayta tiklashga qaratilgan. Respublikada «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi va boshqa qator qonunlar va qonun osti hujjatlarga amal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish sohasidagi bir qancha xalqaro konvensiyalar, shu jumladan Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha konvensiyaga qo'shilgan. Davlatimiz tomonidan ushbu xalqaro hujjatlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishida qo'riqlanadigan tabiiy hududlar katta ahamiyat kasb etadi.

Davlat qo'riqxonalarini hududida ilmiy tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhitni monitoring qilishdan tashqari boshqa barcha faoliyatlar amal qilinadi. Tabiiy bog'lar alohida ekologik, madaniy va estetik ahamiyatdagi tabiatni muhofaza qilish yo'nalishida, rekreatsion, ilmiy va madaniy maqsadlardagi tabiiy

ob'ekt va majmualarni asrash hamda foydalanishga qaratilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir. Tabiiy bog'lar milliy tabiiy bog'lar va mahalliy ahamiyatga molik bog'larga bo'linadi. Tabiiy bog'lar hududi qo'riqxonalar, zonalarga, rekreatsion, xo'jalik va boshqa maqsadlardagi zonalarga ajratilgan (O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 3 dekabrda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonuni). Ushbu kitob bilim va tajribalar almashish va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni asrashdek olijanob maqsadlarga xizmat qiladi. Qo'riqxonalar va tabiiy bog'lar shunchaki faoliyat kursatmayapti, balki yashayapti. Tom ma'noda ular mavjudligining negizi - ular haqidagi munozaralar, ayniqsa ilmiy faoliyatining ahamiyati haqidagi bahslar hamon davom etmoqda. Ko'pgina ho'riqxonalarda xodimlarning 3-4 avlodi o'zgardi, ular o'z tarixi - muassasa-tarixiga egadirlar.

O'zbekiston tabiatini muhofaza qilishda qo'riqxonalarning ahamiyatini o'rganish, tadqiq qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ishning tadqiqot obekti sifatida O'zbekiston qo'riqxonalarning dolzarb masalalari. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilinishning huquqiy – me'yoriy jihatlari. O'zbekistonda suv havzalari va atmosferaning muhofaza qilinishi. O'zbekistonda tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot olamining muhofaza qilinishi. O'zbekiston qo'riqxonalarining tashkil etilishi va faoliyati Tog' mintaqasi va tog'-o'rmon qo'riqxonalari O'zbekiston qo'riqxonalari faoliyatining takomillashtirilishi masalasini o'rganishda respublikadagi qo'riqxonalar olindi.

Respublikadagi qo'riqxonalarni o'rganishda xarita bilan ishlash usullaridan foydalanildi.

I BOB. ALOHIDA MUHOFAZALANADIGAN HUDUDLAR

1.1. Alohida muhofazalanadigan hududlar

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish sohasidagi bir qancha xalqaro konvensiyalar, shu jumladan Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha konvensiyaga

qo'shilgan.

Davlatimiz

toimonidan

ushbu xalqaro

hujjatlar

bo'yicha o'z

majburiyatlari

ni bajarishida

qo'riqlanadig

an tabiiy hududlar katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda muhofaza qilinadigan hududlar tizimi tarkibiga umumiy maydoni 2164 km², 9 ta davlat

qo'riqxonasi, maydoni 6061

km² bo'lgan 2 ta milliy park,

maydoni 12186,5 km² bo'lgan

9 ta davlat zakazniklari, 1 ta

respublika noyob hayvonlari

ko'paytirish markazi kiradi.

Lekin mo'hofaza qilinadigan

hududlarining faqatgina 1,8 % zi uzoq muddatli hisoblanadi. Bu albatta yetarli emas.

Qo'riqxonalar mamlakatning muhofaza qilinadigan hududlari tizimini 10 % izini tashkil qiladi.

O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARI

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	Maydoni km ²
1.	CHotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi (1947 y.)	Toshkent vil. Ohangaron va Toshkent tumanlari.	4516
2.	Hisor tog' archa (1983 y.)	Qashqadaryo viloyati Yakkabog' va SHahrisabz tumanlari.	8143
3.	Zomin tog' archa (1926, 1960 y.)	Jizzax viloyati Zomin va Baxmal tumanlari.	268,4
4.	Baday to'qay tekislik. To'qay (1971)	Qoraqalpog'iston respublikasi, Beruniy tumani.	64,6
5.	Qizilqum to'qay, qum (1971)	Buxoro, Romitan tumani, Xorazm Do'stlik tumani.	101,4
6.	Zarafshon vodi, to'qay (1979)	Samarqand viloyati Bulung'ur va Jomboy tumani.	502,6
7.	Nurota biosfera qo'riqxonasi (1979)	Jizzax viloyati Forish tumani.	177,5
8.	Kitob geologiya qo'riqxonasi (1987)	Qashqadaryo viloyati Kitob tumani.	53,7
9.	Surxon tog'-o'rmon (1987)	Surxondaryo viloyati Termiz va SHerobod tumani.	276,7
	Jami		2274

DAVLAT BUYURTMA MASKANLARI

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	maydoni km ²
1.	Arnasoy (1983)	Jizzax viloyati.	663,0
2.	Qorako'l (1980)	Buxoro viloyati.	100,0
3.	Sayg'oq (1991)	Qoraqalpog'iston resp.	10000,0
4.	Sudochi (1991)	Qoraqalpog'iston resp.	5000,0
5.	Sarmish (1991)	Navoiy viloyati	25,2
6.	Qoraqir	Buxoro viloyati.	300,0
7.	Qarnob cho'l	Samarqand viloyati.	400,0
8.	Qo'shrabot	Samarqand viloyati	165,0
9.	Dengiz ko'l	Buxoro viloyati.	86,0

Milliy parklar yaqin yillarda tashkil qilingan, 1976 yilda Ugom CHotqol milliy parkini tashkil qilish bilan. Milliy parklarlar muhofaza qilinayotgan jami hududning 30% zini tashkil qilinadi.

Davlat zakazniklari muhofaza hududlarini 39% izini tashkil qiladi.

Muhofaza qilinadigan hududlar tizimi O'zbekiston viloyatlari va tabiiy ekologik zonalar bo'yicha nihoyatda notekis joylashgan. Ularning asosiy qismi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar mintaqalarning umumiy rivojlanish strategiyasining elementiga aylanmagan.

DAVLAT MILLIY PARKLARI

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	maydoni km ²
1.	Zomin xalq parki (1976)	Jizzax, Zomin tum.	241,1
2.	Ugom-CHotqol tabiiy milliy parki (1990)	Toshkent viloyati. Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron tumani.	5745,9
	Jami		5987,0

DAVLAT TABIAT YODGORLIKLARI

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	maydoni km ²
1.	Vardanze (1975-1983)	Buxoro viloyati.	3,0
2.	Yozyovon (1991)	Farg'ona va Namangan viloyati	31,8
	Jami		34,8

NOYOB YOVVOYI HAYVONLAR YETISHTIRISH MARKAZI

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	maydoni km ²
1	Jayron ekomarkazi	Buxoro viloyati	51,4


Ularning umumiy maydoni normativlardan 3-6 marta kamdir. Ma'lumki, biosferaning o'z-o'zini tiklash va takror ishlab chiqarish xossalarini saqlab qolish uchun mamlakatlar hududining 10% dan 25 % gacha muhofaza qilinadigan hududlarga aylantirish kerak.

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar har qanday mamlakat hududini 10 % dan 25 % gacha qismini tashkil qilishi kerak. O'zbekistonda turli darajada muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 20,6 ming km² ni tashkil etadi. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar: bioxilma xillikni saqlab

qolish, tabiiy ekotizmni asrash, yo‘qolib ketishi havfi bo‘lgan, o‘simlik va hayvonot do‘nyosini ko‘paytirish, turli rejimda faoliyat ko‘rsatadigan hududiy rekreatsiya tizimlarini barpo etish, tabiat ekologik yo‘laklarini barpo etish kabi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib oladi. Dunyoda muhofaza qilinadigan hududlarning soni 20 mingdan ko‘proqdir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tabiat muhofazasi muammolarini jadal va katta mas’uliyat bilan hal qilishda yangi bosqich boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar» (50-modda), «Er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir» (55-modda) deb mustahkamlab qo‘yilgan. Hozirda O‘zbekistonning atrof muhit va tabiat boyliklaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishga oid qonunchiligi 80 ga yaqin qonun va qarorlarni o‘z ichiga oladi. Barqaror rivojlanishning milliy strategiyasi va Atrof muhitni muhofaza qilish harakatining milliy rejasi ishlab chiqildi va qabul qilindi, shuningdek, Cho‘llashishga qarshi kurash harakatlari milliy rejasi ham tayyorlangan. Endilikda geoekologik muammolar hukumatning doimiy nazorati ostida: bu borada ilk muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilmoqda, qishloq xo‘jaligi erlaridan tobora oqilona foydalanilmoqda, atrof muhit holati ko‘p shahar va regionlarda yaxshilanmoqda, qazilma boyliklarni nes-nobud qilishga chek qo‘yilmoqda. 1991 yilda «Ekosan» xalqaro ekologiya va salomatlik jamg‘armasi tashkil etilgan. Bu jamg‘arma O‘zbekiston va umuman, butun Markaziy Osiyo mintaqasi geoekologik holatini yaxshilashga, atrof muhitni muhofaza qilishga, aholining salomatligini himoya qilish va sog‘lom zurriyotni saqlab qolishga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshiradi.

Ўзбекистоннинг табиий экосистемаси ва алоҳида қўриқланадиган ҳудудлари



1.2. Qo'riqxonalar va ularning ahamiyati

Tabiatning noyob, diqqatga sazovor ob'ektlariga g'orlar, ajoyib shaklli qoyalar, daralar, sharsharalar, er qatlamlari ochilib qolgan joylar, o'ziga xos buloqlar, katta yoshli daraxtlar kiritiladi. Tabiatning bunday ob'ektlari ilmiy, rekreatsiya, turizm, sayohat, nafasat maqsadlarida o'rganiladi va muhofaza qilinadi. Tabiatning go'zal, rang-barang, havo va suvi musaffo, tabiati shifobaxsh landshaftlari ham maxsus muhofaza qilinadi. Chunki bunday landshaftlarni asil holida saqlab qolib, muhofaza qilish, ulardagi tabiiy jarayonlar va ekologik muvozanatning vaqt davomidagi qonuniy o'zgarishlarini tadqiq qilish jihatidan ham muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi respublika hududida 400 dan ortiq tabiat yodgorligini hisobga olgan. Bulardan 80 ga yaqini jonsiz tabiat yodgorliklaridir. Jonsiz tabiat yodgorliklari orasida xilma-xil karst reliefi shakllari, shu jumladan, arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan g'orlar, shuningdek nodir buloqlar, sharsharalar, ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan qoyalar va geologik ochilmalarni muhofaza qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Sayrobdagi qadimiy chinor, Boysundagi Chorchinor, odamlarning qadimgi ajdodi topilgan Teshiktosh g'ori, Xo'jakentdagi qoyaga chizilgan rasmlar, Chinor, Amir Temur g'ori, Qirqqiz, Odamtosh, «Dinazavrlar jangi» qoyalari va boshqalar shular jumlasidan. Ularning betakror, sehrli va maftunkor manzaralari jiddiy muhofazaga muhtojdir.

O'zbekistonning qo'riqxonalarida olib borilgan va olib borilayotgan ishlar ko'lami juda keng, ayni vaqtda juda dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga olib borilayotgan tadqiqotlar avvalgi tadqiqotlarni mazmunan davomi bo'lib, asosan bir maqsadga, ya'ni tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan.

Qo'riqxonalarda jadal olib borilayotgan tadqiqot va ilmiy tekshirish ishlari natijasida qo'riqxonalar maydoni kengaytirilib, alohida muhofaza qilinadigan

hamda tadqiqot markazlariga aylantirilgan hududlar tashkil etilib kelinmoqda. Bunday holatni deyarli barcha qo'riqxonalar negizida ko'rishimiz mumkin.

Zarafshon qo'riqxonasida 2004 yildan keyingi olib borilgan ilmiy tadqiqotlar

Bajarnilgan yili	Tadqiqot mavzusi	Ijrochilar	Rahbar
2004	Zarafshon qirgovuli ekologiyasi va uni	V.V.Efanov	Marmazinskaya N.V.
2006-2010	Zarafshon qo'riqxonasi o'simlik dunyosi monitoringi	F.D.Qobulova	Ilmiy konsultant: Sulaymonov E.S.
2006-2010	Tabiat solnomasi	Qo'riqxonaning barcha jamoa	Ilmiy ishlar bo'yicha muovini Marmazin-skaya N.V.
2006-2010	Zarafshon qirg'ovulining tabiiy ko'payishi		
2006-2010	Zarafshon sharoitida buxoro bug'usining adaptatsiyasi		

Masalan, 1988 yilda qo'riqxonada Zarafshon qirg'ovulini sun'iy ko'paytirish maqsadida qirg'ovul parvarishxonasi qurildi. Tabiatda to'plangan tuxumlarni inkubatsiya qilish, polaponlarni chiqarish, tabiatdagi polaponlarni tutish va keyinchalik volerlarda o'stirish, ovqatlantirish ratsionlarini va inkubatsiya tartiblarini ishlab chiqish va hokazolar bo'yicha ishlar yo'lga qo'yildi. Biroq tajriba muvaffaqiyatli o'tmadi va polaponlarni katta qushgacha o'stirib bo'lmadi, tuxumdan chiqqan polaponlar bir necha haftadan keyin halok bo'lishdi. Shundan kelib chiqib, 1990 yil boshlarida bu ishga chek qo'yildi. 1992 yilda qirg'ovulni o'rganish ishlarini tiklashga qaror qilindi va ITK Boshqarmasining «Zarafshon qirgovulini pitomnik sharoitida sun'iy ko'paytirish» mavzusi tasdiqlandi. 2006 yilda uchta volerda 8 qushdan iborat 3 oila (3 xo'roz va 5 tovuq) boqildi. Moddiy-

texnik ta'minotning etish- masligi, qo'riqxonada elektr energiyasining muntazam yo'qligi, to'laqonli ozuqa bazasining etarli emasligi tadqiqot ishlarini davom ettirishni qiyinlashtirmoqda.

Qo'riqxonada 2000 yilda tashkillashtirilgan va yuqori darajada jihozlangan tabiat muzeyi xizmat qiladi. Unda qo'riqxonaning uchta asosiy ekotizimi: to'qayzor, suv yaqinidagi va tog'oldi ekotizimlari namoyish etiladi. Bundan tashqari «Zarafshon qo'riqxonasi hasharotlari» vitrinalari mavjud. Har yili 900 nafargacha kishi muzeyga tashrif buyuradi. Qo'riqxona hududida 2 ta ilmiy-ekologik marshrut mavjud:

Bu kabi tadqiqot ishlari tekislik mintaqasida joylashgan qo'riqxonalarda ham tashkil etilgan bo'lib, tadqiqotlar izchil davom ettirilmoqda. Masalan, Bodayto'qay qo'riqxonasi hududida ham tadqiqot ishlari keng ko'lamda tashkil etilgan. Qo'riqxona o'tmishida to'qaylar baliqchilik anjomlari va chirimaydigan kendir tolasidan to'rlarni tayyorlaydigan maxsus manba edi. Kendir tolasining yuqori sifatga egaligi qadimdan Amudaryo va Sirdaryo quyi qismida yashagan xalqlardan ma'lum edi (Dunin-Barkovsiy, 1941 y.). Kendir bilan ilmiy tanishish 1865 yilga borib taqaladi. O'sha vaqtda I.G.Borshov birinchi marta Orol-Kaspiy o'lkasining botanika bo'yicha maqolalarida dalillar keltirgan (I.G.Borshov, «Orol-Kaspiy o'lkasining botanik geografiyasi uchun maqolalar». Fanlar akademiyasining 1865 yilgi qaydi). 1893-1894 yillarda Davlat qog'ozlarini tayyorlash ekspeditsiyasining Rossiya sinov bo'limida o'tkazilgan tajriba kendirdan qilingan qog'oz yuqori sifatli bo'lib, pul belgilarini ishlab chiqarish uchun yaroqli ekanligini ko'rsatdi. 1894 yilda pul qog'ozlarini chiqarish maqsadida tola tayyorlash uchun Turkiston o'lkasiga ekspeditsiya jihozlangirildi. Ekspeditsiya 40.000 pud kendir tolasini tayyorlashi kerak edi, lekin laboratoriyada sinov uchun kichik hajmda keltirish bilan cheklanildi. Katta hajmda olib kelish iqtisodiy tomondan o'zini oqlamadi va kendirdan foydalanish masalasi bekor qilindi.


Amudaryo quyi qismidan o'rin olgan «Baday-To'qay» haqidagi dastlabki ma'lumot 1927 yilda. Zaktregerning «Amudaryo daryosi quyi oqimi to'qayzorlari» nomli qo'llanmasida uchraydi.

1935 yilda N.P.Grave To'rtko'l shahridan to Chortanbay tabiiy chegarasiga qadar bo'lgan to'qay o'rmonlarini o'rganib chiqdi, 1936 yilda kuzatish natijalarini nashr qildi. Keyinchalik o'rganilgan to'qay o'rmonzorlari, Amudaryo chap - o'ng qirg'oqlaridagi ettita butkul mustaqil o'rmon maydonlari Baday-To'qayning bo'lajak qo'riqxonahududiga kiritildi. Muallifning ta'kidlashicha, «Baday-To'qay» to'qayzori va Xo'jayli o'rmon xo'jaligining navqiron o'rmoniga hali bolta urilmagan. Olingan ma'lumotlar asosida 1936 yidda «Amudaryo quyi qismidagi to'qay changalzorlari» nomli ishi nashr qilindi. «Baday-To'qay» o'simliklari haqida gap ketganda V.P.Drobovning Amudaryo quyi qismidagi to'qayli daraxt-butao'simliklarining rivoji va ekologik xususiyatlarini qamrab olgan ishi (1947,1950)ni eslatish joizdir.

2.1. O'zbekiston qo'riqxonalari

O'zbekistonda birinchi qo'riqxona 1926 yilda Zomin rayonining Jizzax o'rmon xo'jaligiga qarashli Ko'lsoy va G'o'ralashsoy havzalarida «G'o'ralash» tog'-archa qo'riqxonasi nomi bilan tashkil qilingan edi. Lekin qo'riqxona 1930 yilga kelib tugatilib, uning hududi quyunchilik sovxoziga qo'shib berildi. Quyunchilik sovxosi ham o'z faoliyatini 1933 yilga kelib tugatdi. 1933 yilda «G'o'ralash» tog'-archa qo'riqxonasi qayta tiklandi. 1951 yilga kelib «G'o'ralash» qo'riqxonasi bekor qilindi. O'zbekiston Hukumatining 1959 yil 20 iyundagi ko'rsatmasiga ko'ra, 1960 yilda «G'o'ralash» tog'-archa qo'riqxonasi Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi nomi bilan qayta tiklandi.

Respublikada ikkinchi qo'riqxona 1947 yili tuzilgan Chotqol tog'-o'rmon qiriqxonasidir. 1970 yildan boshlab O'zbekistonda qo'riqxonalar tashkil qilinishiga alohida e'tibor berila boshlandi. O'sha vaqtda Respublikada bor-yo'g'i 3 qo'riqxona (Zomin, Chotqol, Payg'ambarorol) bo'lib, ularning maydoni 49,3 ming gektarni tashkil qilar edi. Hozir O'zbekistonda umumiy maydoni 490 ming gektarni tashkil qilgan 9 ta qo'riqxona mavjud.



1- **rasm:** O'zbekiston respublikasi qo'riqxonalarining xaritada joylashishi

O‘zbekiston qo‘riqxonalari va ularning asosiy faoliyat turlari

№	Qo‘riqxona nomi va tashkil etilgan yili	Joylashgan o‘rni va er yuzasi tuzilishi	Faoliyat turi
	Bodayto‘qay 1971-yil	Qoraqolpog‘istonda, Amudaryo deltasida, maydoni 1000 ga. Deltada hosil bo‘lgan to‘lqinsimon tekisliklardan iborat.	Qayir bo‘yi to‘qaylari landshaftlari, arid va ko‘k bargli terak, jiyyda, tol, chingil, qamish xar xil hashorat turlari, turkiston kapalagi, qora qanotli ninachi, ko‘plab qushlar, jumladan ilonxo‘r, sapsan, uzun dumli burgut, qora kalxat, fazan, xongul, to‘ng‘iz
	Zarafshon 1975 - yil	Zarafshon daryosining o‘rta oqimida, maydoni 2330 ga, daryo qayiri va qayir usti terrasasi, tekislik, muloq balandligi 620-900 m.	CHo‘l zonasidagi daryo o‘zanlari to‘qay ekotizimi. Noyob o‘simliklarda ko‘pyillik piyozsimon sovrinjon, shafran, ko‘kterak, Turkiston do‘lanasi, chakanda. Har xil kemiruvchilar – yumronqoziq, jayra, qunduz. Qushlardan fazan va boshqalar
	Zomin 1959-yil	G‘arbiy Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘rida, maydoni 15600 ga. 1978 yili O‘zbekiston milliy bog‘i tashkil etilib, uning	O‘simliklardan archa, qoraterak, tog‘ piyozi, shirach, bir necha tur tog‘ lolasi, zirk, marmarak va boshqalar. Hayvonlardan “Qizil kitob”ga kiritilgan

		maydoni 31500 ga.ga etkazilgan. 1700-3500 m mutloq balandlikda joylashgan. Tog'lar, daryo vodiylari, ko'plab daralar mavjud.	qo'ng'ir ayiq, silovsin, qor barsi, tog' echkisi. Qushlardan – qora laylak, burgut va hashoratlardan noyob kapalaklar muhofaza qilinadi.
	Kitob 1979 – yil	Zarafshon tog' yonbag'rining O'zbekiston hududi qismida Xojiqo'rg'on soyining chap qirg'og'ida joylashgan. Maydoni 5378 ga. Er yuzasi 1500-2000 m. balandliklardagi tog'lardan iborat.	O'rta Osiyodagi yagona geologik qo'riqxonasi. 300-400 mln. Yillar ilgari yashagan hayvonlarning izlari, tog' jinslari, "Qizil kitob"ga kiritilgan noyob o'simlik turlari – ulug'vor yunona, ulug' tog' lolasi, sharq chinori, anzur piyoz, Zarafshon archasi, qizilcha, shirach. Hashoratlardan beshiktervatar, Turkiston ko'zoynakli iloni, echkamar, tshbaqa, burgut, kaklik va boshqalar.
	Surxondaryo davlat qo'riqxonasi	Ko'hitang tog' tizmasining yonbag'irlarida, o'rtacha balandlikdagi quruq mintaqada joylashgan tog' relief shakllari keng tarqalgan.	Bu hudud ko'plab noyob, endemik o'simliklarning vatani. Gulli o'simliklar ko'pchilikni tashkil etadi. "Qizil kitob"ga kiritilgan burma shoxli echki, Turkiston silovsini, oq tirnoqli ayiq, qoplon, kapcha ilon, burgut, qadimgi hayvon izlari, jumladan, dinozavr izi, bir qator arxeologik yodgorliklar, g'orlar muhofaza

			qilinadi.
	Nurota 1975-yil	Nurota tog‘larining markaziy qismida, 400-2000 m. mutloq balandliklarda, umumiy maydoni 22135 ga. Past va o‘rtacha balandliklardagi tog‘lar reliefi	Bir qator hayvonlar turi, Qizilqum qo‘yi, jayra, burgut, qirg‘iy, echkemar, qora grif, ilonxo‘r va boshqalar, daraxtlardan bodom, yong‘oq, archa muhofaza qilinadi.
	CHotqol 1947 – yil	O‘zbekiston hududida G‘arbiy Tyanshanning CHotqol tizmasida. Maydoni 3500 ga. 800-3500 m. balandliklarda. O‘rta va baland tog‘ reliefi	Qo‘riqxonada mingdan ortiq o‘simlik turi bor. “Qizil kitob”ga kiritilgan tog‘ lolasi, Piskom piyozi, beresklet archa va hayvonlardan Sibir tog‘ echkisi, bug‘u, oq tirnoqli ayiq muhofaza qilinadi.

2.2. TOG‘-O‘RMON QO‘RIQXONALARI

O‘zbekistondagi mavjud qo‘riqxonalarining joylashuv o‘rni va hudud bo‘yicha tarqalish 1993 yilda «Maxus muhofaza qilinadigan hududlar to‘g‘risida» qonun qabul qilindi. Unda bunday hududlarni aniqlash, ularni tartibga solish, muhofaza qilish qonun-qoidalari qayd qilingan. O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va tugab borayotgan turlarini saqlab qolishda, sonini ko‘paytirishda qo‘riqxona, milliy bog‘ va buyurtma qo‘riqxonalar ahamiyati kattadir. O‘zbekistonda qo‘riqlanadigan erlarning umumiy maydoni 2 mln. gektardan ortiq. Mamlakatda 9 qo‘riqxona bo‘lib, 5 tasi – tog‘li mintaqada 2 tasi – daryo qayiridagi to‘qayda va 1 tasi cho‘l landshaftlarida joylashgan.

Bular CHotqol tog‘-o‘rmon, Zomin, Nurota, Zarafshon, Hisor, Surxondaryo, Kitob kabi qo‘riqxonalar tog‘ mintaqasiga, Qizilqum va Bodayto‘qay tekislik mintaqasi qo‘riqxonalaridir. Bu qo‘riqxonalarda bioekologik tadqiqotlar olib boriladi.

Xisor davlat qo‘riqxonasi O‘zbekiston Vazirlar Kengashining 09.09.1983 yildagi 521-sonli qaroriga muvofiq Qizilsuv va Miroqi davlat qo‘riqxonalarining qo‘shilishi natijasida tashkil etilgan. Xisor davlat qo‘riqxonasi O‘zbekistonda eng yirik qo‘riqxona bo‘lib, 80986 ga maydonni egallaydi. Qo‘riqlash tartibini joriy etish Qizilsuv davlat qo‘riqxonasi tomonidan 1974 yilda Xisor tog‘ tizmasining janubiy qismidagi 30094 ga maydonda boshlangan.

1975 yilda shimoliroqda Miroqi qo‘riqxonasi tashkil qilingan. Xisor davlat qo‘riqxonasi O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tasarrufida bo‘lib, tabiatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot tashkiloti hisoblanadi.

O‘simliklar dunyosi - Xisor qo‘riqxonasi xududi Qadimgi O‘rtayer dengiz podshoxligi qaramog‘idagi Eron-Turon viloyatining Afgon-Turkiston geobotanik provinsiyasi G‘arbiy Xisor okrugiga kiradi. Bu yerda faqat yuqori poyas o‘simliklari berilgani va tog‘ etaklari ko‘rsatilmaganligi bois, okrugni qamrab olgan barcha o‘simliklar xilma-xilligi keltirilmagan.

Ba’zi hisoblarga yuksak o‘simliklarning umumiy soni 800-900 dan kam emas. Bunda O‘rta Osiyo tog o‘simliklarining xos belgilari ancha keng ko‘zga tashlanadi.

Qo'riqxonalar murakkabgullilar (*Compositae*), dukkaklilar (*Leguminosae*), krestgullilar (*Cruciferae*), ko'plab boshog'liklar, (*Gramineae*), soyabongullilar (*Umbelliferae*) va labgullilar (*Labiatae*)ga boy.

Dukkaklilar ichida ko'psonli astragalalar (*Astragalus*) o'rinnidir, Ularning 70 turi topilgan, buning ustiga ularning 6 tasi G'arbiy Xisorda, 2 tasi faqat Xisor qo'riqxonasida uchraydi.

Hayvonot dunyosi. Palearktika chegarasidagi O'rta Osiyo tog'pari mustaqil zoogeografik O'rta Osiyo Tog'lari viloyatini tashkil etadi. Shimoli-G'arbiy Xisor uning kuyidagi ikki uchastkasi tutashgan erda joylashgan: G'arbiy-Tyanshan va Tojikiston. O'rta Osiyo tog'liklari boshqa tumanlaridagi kabi Shimoli- G'arbiy Xisorda palearktika fauna elementlari qadimgi O'rta yer dengizi, Eron-Turon, O'rta Osiyo, shuningdek, ancha janubiy hindu-ximoloy va sharqiy-Osiyonikiga mos keladi.

Hudud hayvonot dunyosi kam o'rganilgan. Lekin, berilgan ma'lumotlarga ko'ra umurtqalilarning 268 ta turi xisobga olingan. Qo'riqxonalar suv havzalarida ikki xil baliq, 19 turdagi quruqlik va suvda yashovchi va sudralib yuruvchi jonivorlar,

Zomin tog'-archa qo'riqxonasi. O'zbekistondagi eng eski qo'riqxonalardan biri bo'lib, uning barpo etilish tarixi ma'lum qiziqish uyg'otadi, shuningdek ba'zi tarixiy dalillari aniqlik kiritishni talab qiladi. Birinchidan, ko'pchilik qo'riqxonalar 1926 Yilda tashkil etilgan deb hisoblaydi va bu ma'lumot vaqtli matbuotda bugungi kunga qadar ham tilga olinadi. Biroq arxiv hujjatlariga nazar tashlansa, hammasi oydinlashadi. Shunday kilib, 1926 yilda Maorif komissarligining Akademik markazida ko'rsatilishicha, Zomin o'rmon dala hoshshsining 200-800 yillik yoshdagi archazorlarni muhofaza qilish maqsadida qo'riqxonalar tashkil qilinishi haqidagi masala ko'rilgan. Daraxtlarning o'rtacha diametri 7-8 vershok (4,4 sm ga teng uzunlik o'lchovi), o'rtacha balandligi 12 arshin (0,71 m ga teng uzunlik o'lchovi). Bu erda archa daraxtlari kam kesilgan va yonginga uchraganligi sababli Zomin o'rmon dala hovlisi bo'lajak qo'riqxonalar maydoni uchun loyiq deb topildi. Mo'ljallangan hududni tadqiqot qilish uchun prof.V.P.Drobova,

N.E.Starobog‘atova hamda Samarkand viloyat o‘rmonchilik va tabiatni muhofaza qilish bo‘limi vakili ishtirokida uch kishidan iborat ekspeditsiya tashkil qilindi. 1926-1927 yillarda G‘o‘ralashsoy erlari qo‘riqxona uchun ajratib berildi, 1928 yil 5 iyunda Sovetlarning Markaziy ijroiya qo‘mitasi va Xalq komissarlar Soveta quyidagi mazmundagi Qarorni qabul qildi:

Zarafshon davlat qo‘riqxonasi - Zarafshon davlat qo‘riqxonasi 1975 yilda O‘zSSR Ministrlar Sovetining 11 maydagi 264-sonli «Samarkand oblastida Zarafshon davlat qo‘riqxonasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qaroriga muvofiq Samarkand o‘rmon xo‘jaligining Samarkand o‘rmonchiligi negizida Davlat er zahirasi va irrigatsiya o‘rmon xo‘jaligi hududlari hisobiga tashkil qilindi. 1981 yil 31 iyulda Samarkand oblasti Xalq deputatlari Sovetining ijroiya komiteta tomonidan 15/554-5-son Qarori bilan ho‘riqxonaga perimetri bo‘yicha 81,7 km lik muhofaza qilish zonasi ajratildi. 1958 yilda 635 ga maydondagi o‘rmon xujaligining to‘qayzorlari hamda kolxoz, sovxoz va Davlat er zahirasining (1800 ga) to‘qaylari (hozirgi paytda ushbu xudud qo‘riqxona tarkibiga kiritilgan) fakat shu erda o‘sadigan to‘qayzorlarda yashaydigan tillarang qirg‘ovulning Zarafshon populyasiyasini tabiiy yashash muhitida saqlab qolish maqsadida qirg‘ovul buyurtmaxonasi deb e‘lon qilindi. Buyurtmaxona 17 yil faoliyat yuritdi. Uz vaqtida bajarilgan chora-tadbirlar tufayli qirgovulning ushbu o‘ta chiroyli kichik turi populyasiyasi hozirgi paytda saqlanib qoldi.

Kitob davlat geologiya ko‘rikhonasi. Xalqaro tabiat geologiya qo‘riqxonasi 1979 yilda Uzbekistan Respublikasi Hukumatining 22 martdagi № 206 - sonli karori bilan umumiy maydoni 3938 gektar (ga) dan iborat bo‘lgan Kitob davlat geologiya ko‘rikhonasi tashkil etildi. Tabiatning nodir yodgorliklari, geologo stratigrafiya, paleontologiya, sedimentologiya va boshka intizomlarning fundamental asosini kayta ishlash uchun zarur tabiiy ilmiy-tadqiqot poligonini qo‘riqlash, shuningdek Xalqaro devon maktabi, Xo‘jakurg‘on va Zinzilban soylari xutsudida ilmiy tadqiqotlar bazasini shakllantirish. Erning geologik tarixidagi tabiiy-ilmiy yodgorliklarini tashkil etuvchi paleoshologiya-stragigrafik ob‘ektlarni o‘rganish,

shunishdek, tabiagai muhofaza qilish va aholining ekologik ongini oshirishga qaratilgan g'oyalarni omalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

Nurota «Yong'oqlisoy» tog'li davlat qo'riqxonasi. O'zbekistonning 1975 yilning 4 dekabrda gi №530 qarori asosida tashkil etilgan. Mazkur qo'riqxonani tashkillashtirshdan maqsad shuki, O'zbekistondagi ushbu Davlat qo'riqxonasida ov qilishni man etish, o'simliklarni nazorat ostida bo'lishini ta'minlash, u erda uchraydigan Xalqaro Qizil Kitobga va O'zbekistonRespublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan kamyob endemik Seversov qo'yining noyob populyasiyasini saqlab qolish va uni ko'paytirshssan iborat hamda qo'riqxona xutsutsidagi yongoq turparini saqlab qsshish maqsadida tashkil etilgan. Qo'riqxona tashkil topgan boshlangich davrda uning maydoni 22537 ga maydonni egallagan edi. Uning ilk maydoni 1976 va 1987 yillarda viloyatlararo chegaralar va qo'riqxona chegarasidagi o'rmon qurilishlari bir necha marotaba o'zgardi. 1979 yilda qo'riqxona ixtiyoriga rasman 22138 ga er maydoni topshirildi. 1990 yilda 4386 ga er o'rmon xo'jaligiga berilganligi tufayli qo'riqxona maydoni 17752 ga.gacha qisqardi. 1986 yilda qo'riqxonada 15322 ga maydonda qo'riqlash zonasi o'rnamildi.

Surxon davlat ko'riqxonasi. Surxon davlat ko'riqxonasi sobiq O'zSSR Ministrlar Sovetining 1989 yilning 8 sengyabrida «Muxrfazani kuchaytirish va kamyob xamda yo'qolib borayotgan xayvonlar va o'simliklar turlarini, archali o'rmonlarni saklash» maksadida qabul qilingan buyrug'i asosida tashkil topgan. Surxon davlat qo'riqxonasi Surxondaryo viloyati SHerobod tumanining shimoli-g'arbida joylashgan ikki uchastka: Orol-Paygambar va Ko'hitang tog' tizmalarining sharqiy qiyaliklaridan iborat.

Umumiy maydoni 3092 ga ni tashkil etadi Orol- Paygambar uchastkasi quriqxona sifatida 1971 yilda vodiy-to'qayli ekotizimini xamda TMXI va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan Buxoro bug'usini saqlash maqsadida tashkil qilingan edi.

O'sha yillarda xam morxo'rlar, Buxoro tog' qo'yi, qushlardan: burgut, boltayutar va boshqalar, shuningdek, morxo'r va qo'yni ovlash tasvirlangan jahon ahamiyatiga molik Zarautkamar noyob arxeologik yodgorligi muhofaza etilgan.

Orol-Paygambar oroli ziyoratgoh joy bo'lib, bu erga yirik musulmon namoyandalarning biri dafn etilgan kabrtosh sag'anasi ustida Zulkifl machiti kurilgan.

Iqlimning o'ziga xos xususiyatlari okean massasidan yiroqligi va murakkab orografiya bilan izoxlanadi. Qishda iqlim Sibir va Sharqiy Evropaning markaziy rayonlari quruq va sovuq havosi, Atlantikadan Qora va Kaspiy dengaziga o'tadigan iliq va mutadil xavo ta'sirida shakllanadi.

Ayni paytda Ko'hitangda 749 turdagi yuksak o'simliklar ro'yxatga olingan, ular 269 turkum va 55 oilaga mansub. Ulardan 22 turi Uzbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan. 2006 yilda ko'riqxonada quyidagilar aniqlandi: 28 turdagi suv o'tlari, 35 turdagi qo'ziqorinlar, 15-lishayniklar, 3-moxlilar, 3-qirqkuloqlilar, 1-yalangochurug'lilar va 578-yopikurug'lilar. Ko'hitang o'simliklar olami F.Hasanov (1987) tomonidan vertikal taqsimlanadi va to'rtta mintaqaga va beshinchisi qo'shimcha o'rmon qurilish materiallariga bo'linadi.

Qo'riqxonada faunasi murakkab yagona kompleksga ega bo'lib, O'rta Osiyo tog'larining tabiiy sharoitiga moslashgan. Qo'riqxonada to'liq ma'lum bo'lmagan quyidagi xayvonlar turlari aniqlangan:

Hasharotlar -32 turda, Baliqlar-2 turda, Amfibiyalar- 2 turda, Reptiliyalarda-26 turda, Qushlar-102 turda, Sut emizuvchilar -24 turda.

O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil Kitobiga kiritilgan noyob turlar: Reptiliyalarda, Qorako'zli kaltakesak, Qoraboshli boyga, Kulrang echkamar, Afg'on litorixi, O'rta Osiyo kobrasi, Qushlardan Turkiston oq laylagi, Turkiston kora laylagi, boltayutar, oqboshli qumoy, qorakalxat, ilonxo'r. Sutemizuvchilardan Oqqorinli oqquloq, Turkiston silovsini, Buramashoxli echki – morxo'r, Buxoro kuyi.

2.3. Cho'l- o'rmon qo'riqxonalari

O'zbekistonda tekislik mintaqasida Baday – to'qay va Qizilqum qo'riqxonalarini joylashgan. Ularning tabiiy sharoiti va boyliklari tog' mintaqasi qo'riqxonalaridan farq qilsada, O'zbekistonda tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari bilan beqiyos ahamiyatga ega.

Boday-to'qay qo'riqxonasi. O'tgan asrning 60-yillarida Amudaryo suvi quyilishining to'xtashi va to'qayzorlardan foydalanish kengaygani oqibatida bu o'rmonzorlar va hayvonlarning yashash joylari keskin qisqardi. To'qay changalzorlari yagona yashash joyi bo'lgan Buxoro bug'ularining butunlay qirilib ketish xavfi tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasida to'qay o'rmonzorlar Amudaryo, Sirdaryo, Surxondaryo Zarafshon, CHirchiq va Qashqadaryo daryolarining quyi qismi vodiylarida ensiz tasma bo'lib tarqalgan (1973).

70-yillarga kelib Badayto'qay hududining Amudaryo etaklarida to'qayzor eng ko'p saqlanib qolgan hudud ekanligini ko'rsatib o'tish kerak. Unda to'qayzorga xos bo'lgan hayvonot va o'simliklarning barcha xususiyatli turlari mavjud bo'lgan. Ana shularning hammasi Qoraqalpog'iston Respublikasida yagona qo'riqxona barpo etilishiga zamin yaratdi.

«Baday-to'qay» davlagg qo'riqxonasi O'zbekiston hukumatining 1971 yil 26 apreldagi farmoyishiga asosan tabiiy to'qayzorlar va uning hayvonot dunyosini saqlab qolish maqsadida barpo etilgan.

Bugungi kunda «Baday-to'qay» qo'riqxonasi maydoni 6462 ga maydonni tashkil etadi.

Joylashuv o'rn i va chegarasi. Qo'riqxona Amudaryo o'ng sohilida Sultonuvays tizmasi yonbag'rida Qoraqalpog'istonning Beruniy tumanida joylashgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining O'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasi huzuridagi Qo'riqxonalar va milliy bog'lar hamda ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tasarrufiga kiradi.

Hudud oval shaklda, janubda Amudaryo daryosi bilan tutashgan, janubi-sharkdan shimoli-g'arbga yo'naltirilgan va Taldiq o'rmoni bilan chegaradosh, shimoldan va shimoli-g'arbda esa Ko'kdaryo oqimi bilan tasmlangan. 1969 yilda Ko'kdaryoning Amudaryo bilan tutashgan yuqori irmog'i to'g'on bilan bo'g'ilgan, hozirgi paytda Ko'kdaryoga Biybozor kollektorining suvi quyilmoqda.

1971 yilda qo'riqxonaning 1362 ga maydoni muhofaza etiladigan hudud sifatida ajratilgan. U qo'riqxonaning shimoliy va sharqiy tomoni bo'ylab ensiz 500 dan 700 metrgacha tasma shaklida joylashgan.

Iqlimi. Qoraqalpog'iston iqlimi o'ta kontinental, quruq, yozi issiq, qishi sovuq va kam yog'ingarchiligi bilan tavsiflanadi. Kontinentalligi sutkalik, oylik, mavsumiy va yillik havo haroratining keskin tushib-chiqishi, quruqligi, kam yog'ingarchiligi bilan xususiyatlanadi.

Qoraqalpog'iston qishi o'ta qahraton. Eng sovuq oy - yanvar, havoning o'rtacha oylik xarorati -5. Ayrim yillarda havo haroratining eng past ko'rsatkichi -3 dan -32-35 darajagacha. Qishi kamqorli. Qor qatlami beqaror. Qishning qor qatlamli davri 1 dan 44 kungacha. O'rtacha qor qalinligi 4-5 sm, bazan undan oshadi. Qish davrida havoning nisbiy namligi 61 dan 74 foizgacha oraliqda. Qo'riqxona hududi juda quruq mintaqada joylashgan. YOg'ingarchilik yil davomida 70-90 mm gacha tushadi hamda erta bahor va kuz davriga to'g'ri keladi.

Tuproqlari. Tuproq-iqlim chegaralanish chizmasiga ko'ra qo'riqxona Quyiamudaryo okrugining Xorazm- Janubiy Qoraqalpog'iston tumaniga kiradi.

O'rmon xo'jaligining tabiiy baholanishiga ko'ra qo'riqxona hududida tuproqning uch turi kuzatilgan: o'tloq-qayir-allyuvial, o'tloq- allyuvial, sho'rhok.

Hozirgi vaqtda «Baday-To'qay» qo'riqxonasi muhofaza etiladigan hudud maqomiga to'liq javob beradi.

O'simliklar dunyosi Qo'riqxonaning birinchi direktori V.P.Limning (1975 y.) qaydlariga ko'ra, qo'riqxona hayotining birinchi davrida 4532 ga yoki hududning 70 foizi to'qay o'simliklari bilan qoplangani uchun butkul to'qayli bo'lgan. O'rmon fondining 2005 yil 1 noyabrdagi hisobi ko'rsagishicha, qo'riqxona maydonining o'rmon bilan qoplangan maydoni 3950 gekgargacha, ya'ni o'tgan 35

yil ichida 578 gektarga qisqargan. Urmon maydonining yillik o'rtacha qisqarishi 19,3 ga ni tashkil etgan. Keltirilgan ko'rsatkichlar ko'riqxonada o'rmon tizimiga antropogen ta'sir kuchayganligi va suvdan foydalanish tartibi qoniqarsiz bajarilayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar daraxtli to'qayda uch shakllanishni ko'rsatadilar: ular turang'il, tol, jiydaga oid (Maylun, 1973 y.). Ularning bari landshaftni tashkillashtiruvchi jamoadoshlardir. Floraning asosiy qismlariga ariy teragi yoki xususan turang'il (*Populus ariana* Dode), ko'kimtir terak (*P. prunosa* Schenka), jo'ngari toli (*Salix sonqarica*), Vilgelm toli (*S. wilhelmsiana*), ingichka bargli jiyda (*Elaeagnus angustifolia*) lap kiradi.

Terakning ariy va ko'kimtir turi Termizdan tortib Amudaryo kuyi qismining barcha ko'lamida kayd etilgan, bunda vodiyning turli uchastkalarida kaysidir bir turi ustunlik qiladi (Ashirova, 1976 y.). Bu nuqtai nazardan «Baday- To'qay» qo'riqxonasining turli jamoadoshlar shakllanayotgan xududi ma'lum ahamiyat kasb etadi. Yuqorida nomi zikr etilgan ikkala turning areali O'rta va Markaziy Osiyodan chetga chiqmagan.

Qo'riqxonada to'qayzorlarini ta'riflaganda, o'rmonlardagi hamma joyida turang'il ustunligi, jiyda va taroqsimonlar kamroq uchrashi, joylarda Amudaryo bo'ylab qatorlab tollar ko'zga tashlanishini aytib o'tish lozim.

To'qaylarning ancha qismi sharq ilonpechagi, sibir sinanxumi, dala chirmoviqqlar, eron sarsabili va lianalar bilan o'rilgan. To'qadda butalar kam, o'tsimon o'simliklar juda yomon rivoj topgan. Bunda eriantus, veynik, imperata singari qadimgi uchlamchi davr unsurlari mavjud.

Nam joylarda oddiy qamish, qizilmiya, dag'al kendir, katta bargizub, lansetsimon bargizublar uchraydi. Sho'rxok erlarda qorabaroq, sho'rhok ajrigi, turkman svedasi, dagaljunli yulg'un va ba'zi joylarda tuzli substraktlar bilan bog'langan oddiy yantoq o'sadi.

Hayvonot dunyosi Qo'riqxonada hududi zoogeografik ma'noda Turon ma'muriy bo'linmasining shimoliy maydoniga qaraydi. Qo'riqxonada hayvonot dunyosi Amudaryo quyi qismi o'rmonlari hayvonotining xos «bo'lagi»dir.

Hasharot va boshqa umurtqasizlar. Umurtqasizlar faunasi o'rganilmagan, garchi bu erda ularning turlari va tashqi ko'rinishi bo'yicha umurtqalik hayvonotlardan ancha ustunlik qilsa ham. Undan tashqari, hashorotlarning ko'p turlari noyob yoki yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. Sobiq Ittifoq Qizil kitobiga kiritilgan maxon, turkman pestryankasi, qoraqanot chigirgkalarining (Popov, Abdreimov, Tishkov, 1990 y.) xududda yashashi zoolog olimlar tomonidan tasdiqlanmadi.

Baliqlar. Qo'riqxonada hududini yuvib o'tadigan Amudaryo suvi va Ko'kdaryo irmog'ida 26 turdagi baliqlar (Mirzaev, 2005 y.) hayot kechiradi. 2004 yildagi kuzatishlarda «Baday-To'qay» qo'riqxonasi baliq turlari tarkibida 1973 yildagi ma'lumotlarga nisbatan ba'zi o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Bu Amudaryo oqimining boshqarilishi, irrigatsiya inshootlarining rivoji bilan bog'liq. SHunday qilib, qo'riqxonada ixtiofaunasi tarkibidan bakra baliq, orol oqko'zli balig'i, zog'orabalik, qizilqanot va oq sila kabi turlari butunlay yo'qolgan. Amudaryo qumli suvlarining tezoqar joylarida katta va kichik kurakburunlar yashaydi. Baliqlarning bu ikki turi O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan.

Amudaryoning qo'riqxonadan o'tgan qismida cho'rtansifat oq qayroq, laqqa baliq, oqcha, tarasha balik, karrak (nayzaqanot), oq amur, do'ngpeshona va boshqalar uchraydi.

Suvda va quruqlikda yashaydiganlar va sudralib yuruvchilar. Quruqliqda va suvda yashovchilar kam sonli, atigi ikki turdan iborat: to'qay chekkalarida tarqalgan yashil qurbaqa va sokin oqadigan xavzalarda uchraydigan ko'l baqasidir. Ulardan farqli o'laroq sudralib yuruvchilar anchagina. Bugunga kelib bu erda sudralib yuruvchilarning 13 turi topilgan. To'qayning chekkalarida O'rta Osiyo toshbakasi, cho'l kaltakesagi tez-tez uchrab turadi. To'qay changalzorlari orasida to'rang'ilning o'tgan yilgi barglari orasida cho'l taqirko'zlisinnng uchrashi odashy holdir. G'ira-shirada loydevorli uylarning vayronasidan ovga chiqayotgan Kaspiy gekkonlarini ko'rish mumkin. Tezkor va yo'l-yo'l kaltakesakchalar qo'riqxonada hayvonot dunyosiga xos jonivordir.

Kaltakesaklarga nisbatan iloklar kam uchraydi. Bu erning Ko'kdaryo irmog'ida daraxt bo'laklari va ildizlari orasida suv ilonlarini ko'rish mumkin. Tollarning o'sib ketgan changalzorlarida o'qilon ham topilgan. To'qayning o'tli o'simliklari orasi va molxonalar devorlarida gulli chipor ilon kuzatilgan. CHipor ilonlarning ikki turi - ko'ndalang- yo'lli va dog'lilari o'rta asrga mansub Jampiq-Qala devorlarida uchratiladi.

Qushlar. «Baday-To'qay»ning eng ko'p umurtqali jonivorlari qushlardir. Bu erda ularning 91 turi (Lim, 1975 y.) ro'yxatga olingan. Qo'riqxonada bo'lish holatiga ko'ra ular shunday bo'linadi: in quradiganlar – 39 ta, o'troq – 16 ta, qishlaydigan – 18 ta, uchib o'tuvchi turlari - 18ta.

«Baday-To'qay»ning o'troq qushlari: oddiy miqqiy, Xiva qirg'ovuli, ko'k kaptar, kichik qumri, oqqanot kizilishton, tojli so'fito'rg'ay, zagizg'on, qora quzg'un, zagcha, Buxoro chittagi, oddiy mayna, dala chumchug'i.

Sutemizuvchilar. Qo'lqanotlilardan esa mo'ylovdor tunshapalak, mitti netopir, yirik ko'rshapalak, quyonsifatlilardan *oddiy quyon* uchraydi. Kemiruvchilar - plastinkasimon tishli kalamush, uy sichqoni va qumsichqon.

Yirtqichlar sinfiga mansub chiyabo'rilar o'tish qiyin bo'lgan to'qaylarni makon qilganlar, bo'rsiq daraxtli-butasimon o'simliklar oralab yashaydi.

Qo'riqxonaning sohilbo'yi quruq to'qaylarida onda-sonda qamishzor mushugi uchraydi.

«Baday-To'qay»dagi tuyoqlilarga to'ng'iz va Buxoro bug'usi kiradi. To'ngiz faqat to'qayzorlarda yashaydi, asosan qo'g'a (lux) va qamishlarning ildizpoyasi bilan ozuqlanadi, kuzda jiydaning hosilini baham ko'radi.

Qo'riqxonaning faxri bu albatga iqlimga moslashtirilgan Buxoro bug'usi (xongul)dir. U bir paytlar Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimi suv havzasini ishg'ol qilgan. Jonivorni vaxshyylarcha qirish tufayli uning populyasiyasi buzildi. Bu hol ularning «Baday-To'qay» ko'riqxonasida moslashtirilishiga olib keldi.

Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI-IUCN) va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan turlar. O'simliklardan Buze lolasi, Sug'd lolasi. Baliqlardan Orol bahrasi (bakra), Amudaryo katta kurakburuni

(qilquyruk), Amudaryo kichik kurakburuni (toshbakra), Orol qorako'zi (oq zog'orabaliq), Orol mo'ylabdori (so'g'yon, so'zanabaliq). Qushlardan Qorabuzov (kichik qoravoy), Ilonburgut - ilonxo'r burgut, Itolg'i, Qo'ngir (qora) kaptar. *Sutemizuvchilardan Xongul (Buxoro bug'usi),*

Ruxsat etiladi: Begona tashkilotlarga bitim asosida ilmiy-tekshiruv ishlari.

Qizilqum davlat qo'riqxonasi 1971 yilning iyun oyida Qizilqum o'rmon xo'jaligining qumloq va to'qayli nerlardan iborat 3985 gektar maydoni joylashgan bazada tashkil qilindi.

Qo'riqxona to'qayli - qumloq biotizimlarining bioxilma-xilligi, to'qayli o'rmonlarning aborigeni sanalgan Buxoro bugularini saqlash maqsadida tashkil qilingan bo'lib, bu tur TMXI (Xalqaro tabiatni muhofaza qilish uyushmasi) va Uzbyoki ston Qizil kitobiga kiritilgan. Qo'riqxona tashkil topgan 1971 yildan boshlab o'rmon xo'jaligi tazimi bo'yicha to'liq tajriba mak- tabini o'tagan, ya'ni nafaqaga ketgunicha o'z faoli- yatini bosh o'rmonchilikdan boshlab, to qo'riqxona direktori vazifasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan Turdiali Qodirovning rahbarlik salohiyati tahsinga sazovor. Ilgari qo'riqxona hududida mahalliy aholining chorvasi boqilardi, jumladan, Turkmanistonning Darganata dahasi aholisi tomonidan ham kuplab xuquqbuzarliklar bo'lib turar, ular o'z chorvasini qo'riqxonaning tukzyli oroliga qarab kechasi haydab yuborardilar. Ammo direktor bu kabi kamchilshslarga barham berib, Turkmani ston aholisining yirik uy hayvonlarini yig'ib, ushbu masalani hal qilish uchun respublika sudiga topshiradi. Ish ko'p yillar mobaynida ko'rilsa-da, Turkmaniston hukumagi tomonidan qo'riqxona hisobiga yirik miqdordagi jarima undiriladi. Bu esa o'z navbatida yirik sensatsiyaga aylanadi. Qo'riqxona O'zbekistonRespublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasiga qarashli Qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tasarrufida.

Qizilqum davlat qo'riqxonasi O'zbekistonRespublikasining ikkita ma'muriy tumani va ikkita viloyat hududida joylashgan: xususan, Buxoro viloyatining

Romitan tumanidagi 1467 ga va Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi 8844 ga erlar shu- lar jumlasiga kiradi.

Qo'riqxonada hududi Amudaryo daryosi qirg'okdari qismidan boshlanib, shimoli-garbiy qismidan janubi-sharqqa tomon 30 km, sharqsan garbga qarab, asosan to'qayli va qumloq, sahroli erlarni o'z ichiga oladi. Qo'riqxonada tashkilladgshrilgan vaqgga qadar bu hutsutslar Qizilqum o'rmon xo'jaligi tarkibiga kirgan. Bu erda yog'ochsozlik bilan shugullanishar, aholining xususiy chorvasi boqilar, ov qilishardi. Amudaryo oqimining umumiy pasayishi natijasida gidrotexnik qurilishlar, xo'jalik yuklamasining oshishi to'laqonli to'qaylarning inqirozga uchrashiga olib kelishi mumkin edi.

Hayvonot dunyosi (Fauna) Qo'riqxonada xayvonot olami boy, qiziqarli va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Amudaryo daryosining naqdligi, quyruq rangbarangpik, to'qayli o'rmonlarning butazorlari va o'tli o'simliklari takrorlanmas, boy va tabiiy ozuka bazasi, hayvonlar uchun yashirinish va in kurish uchun mos joylar qo'riqxonaning bioxilma-xilligini saqlashni ta'minlaydi. Odatda qo'riqxonada Buxoro bugusining tabiiy tarqalishi - tukayli o'rmonlar aborigeni sanapadi. Ayni paytda 2007 yilning bahorgi kuza- tuvlariga kura, qo'riqxonada 110-130 mavjudat kun kechiradi.

Qo'riqxonada Amudaryo va Xiva qirgovulining ikki turi aniqlangan, faunaning noyob namoyondalari bo'lgan parrandalarning 1000 ta dan orshg'i mavjud bo'lib, ularga injiq ob - havo sharoitida Amudaryo sohillarida kun kechirish oson emas. SHunday paytlarda ularning soni keskin kamayadi. Toshqinlar vaqgida qo'riqxonada faunasi kumloqparida jon saqlab qoladi.

2006 Yilda hayvonlarni tiklangan soni: Baliqlar -27 turda, Amfibiylar - 2 turda, Sudralib yuruvchilar - 29 turda, Sutemizuvchilar - 35 turda, Kushlar -267 turda.

III BOB. QO'RIQXONALARNING AHAMIYATI.

3.1. Atrof- muhitni muhofaza qilishda qo'riqxonalarning ahamiyati

O'simliklarni muhofaza qilish. O'zbekiston hududida cho'l, adir, tog' oldi, tog' va baland tog' balandlik mintaqalari o'simlik qoplami tarqalgan. Respublika hududida 4100 dan ortiq o'simlik turi bo'lib, shundan 577 tasi dorivor, 103 tasi bo'yoqli va 560 tasi efir moyli. O'simliklarning 10–12% muhofazaga muhtoj. Bundan tashqari mamlakatda, xususan. Orolbo'yida tabiatni muhofaza qilish maqsadida ihota o'rmonlari bunyod etish davom etmoqda.

Bundan 40–45 yil muqaddam tekislikdagi daryo va soylar qayirlari ancha zich to'qay va qamishzorlar bilan qoplangan bo'lib, to'qaylarda turang'il, tol, jiya, yulg'un kabi daraxt va butalar qalin o'sgan. Keyingi yillarda to'g'on, suv omborlari va kanallar qurilishi avj olib, daryo hamda soy suvlari keskin kamayishi, sizot suvlari sathi tobora kamayib, ularning minerallashuvi va sho'rliigi ortishi natijasida bu to'qaylarning katta qism quridi (ayniqsa, quyi Amudaryoda). Respublika yaylovlarining hozirgi ahvoli ham ancha tashvishlidir. Bularning asosiy sabablari – yaylovlardan noto'g'ri foydalanish, tog' oldi va chala cho'l zonasidagi katta-katta maydonlarning asossiz ravishda haydalib, ekinlar ekilganligi, cho'lda – saksovul, tog'larda archa kabi qimmatbaho daraxt va buta o'simliklarining ko'plab kesilib ketganligi, yaylovda qo'y, mol boqish me'yoriga amal qilmaslik, yangi erlarning o'zlashtirilishi, cho'l zonasida yangi-yangi shahar va yo'llar qurilib, yangi konlar ishga tushirilganligidir.

O'zbekistonning o'rmon fondi, asosan, tog' o'rmonlaridan iborat bo'lib, tabiatni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular ajoyib tabiiy manzara, o'ziga xos sog'lom mikroiqlim yaratadi, suvni saqlaydi va tuproqni eroziyadan asraydi, atrof muhitning sanitariya-gigiena holatini yaxshilaydi.

O'rmonlar respublika maydonining 5,1% ini tashkil etadi. Keyingi 30–35 yil mobaynida ekologik vaziyatning yomonlashuvi sababli O'zbekiston «qizil kitobi»ga 147 o'simlik oilasi kiritildi. Bularning ko'pi qimmatbaho dorivor

o'simliklardir. Respublikamizda 1997 yilda «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish haqida» qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosiga ega. So'ngi yillarda insonning xo'jalik faoliyati natijasida flora va faunaga salbiy ta'sir kuchaydi. (O'zbekistonda mavjud 4 mingdan ortiq o'simlik turlarining 10-12 foizi muhofaza talab. O'rmon resurslari cheklangan va o'rmonlarni qayta tiklash ishlari talabga to'la javob bermaydi. Eng qimmatli tog' o'rmonlarining maydoni o'nlab marta qisqarib ketgan. To'qaylar va qayir o'rmonlari kcfplab kesib tashlangan. Tabiiy yaylovlarning holati yomonlashgan va ularning maydoni 6,5 mln.ga kengaygan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning turlari ham ko'plab uchraydi va ularning aksariyati hozirgi vaqtda muhofaza talab. Respublikamizda o'simlik resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston faunasi 682 tur umurtqali hayvonlar va 32484 tur umurtqasiz hayvon turlaridan iborat. Hali to'la o'rganilmagan umurtqasiz hayvonlar ichida muhofazaga muhtqjlari ajratilmagan. 1983 yili e'lon qilingan (O'zbekiston « qizil kitob » iga umurtqali hayvonlarning 63 turi kiritilgan bo'lib baliqlar-5 tur; qushlar-31 tur; sut emizuvchilar-22 tur; sudralib yuruvchilar-5 turdan iboratdir. O'zbekistonda turon yo'lbarasi, qizil bo'ri, gepard, yo'l-yo'l giena kabi turlar qirilib ketgan. Ustyurt qo'yi, burama shoxli echki, qor barsi, buxoro bug'isi va boshqa ayrim turlar yo'qolish arafasidadir. Orol dengizining qurishi, daryolar suvining ifloslanishi va suv omborlarining qurilishi ko'plab qimmatli baliq turlarining kamayishiga olib keldi. (O'zbekistonda har yili o'n minglab turli hayvonlar ov qilinadi. Ruxsatsiz ov qilish ayrim noyob hayvon turlarining yuqolishiga olib kelmoqda. (O'zbekistonda noyob o'simlik va hayvonlar qonun tomonidan himoya qilinadi va ulardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish uchun xilma-xil tadbirlar o'tkazilmoqda.

Respublika vodiylarida o'rmon maydoni 210 ming gektar. Unda jiyda, turong'i, akatsiya, tol, terak, zarag, qayrag'och va chinor daraxtlari o'sadi. O'rmonlarni muhofaza qilish uchun Quyidagi tadbirlarni bilish va bajarish zarur:

- yosh nihollar nobud bo'lishining oldini olish;
- o'rmon resurslarini qayta tiklash va hosildorligini oshirish;
- o'rmonlarni yong'indan saqlash;
- o'rmonlarni har xil zararkunandalardan va kasallanishdan saqlash;
- o'rmonlarni zaharli va kimyoviy moddalar bilan iflos-lanishdan saqlash.

Respublikamizda 1981-85 yillarda yong'in natijasida 778 gektar o'rmon yonib, 385 gektarida o'rmonlar butunlay yongan va nobud bo'lgan. Respublikamizdaga o'simliklarning 577 turidan dori tayyorlanadi, 103 turidan bo'yoq, 560 turidan efir moyi oli-nadi.

Tabiatda moddalar va energiya almashinuvida hayvonlar muhim rol o'ynaydi. Dunyodagi yashil o'simliklar, quyosh energiyasining 1 foizinigina o'zlashtirib, yiliga 150-120 mlrd t organik modda hosil qiladi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish. O'zbekiston hayvonlari o'simliklar kabi, XX asrning 2-yarmida muhofazaga muhtoj bo'lib qoldi. Buning asosiy sabablari – aholi o'z xo'jaligi bilan barcha zonalar ichiga tobora chuqur kirib borishi, tabiiy landshaftlarning madaniy landshaftlar bilan almashinishi, hayvonlar ekologik muhitining tobora yomonlashuvi va, nihoyat, hayvonlarni ovlashning ilmiy asoslangan tartibiga qat'iy rioya etmaslikdir.

Tabiiy va ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, o'tgan asrning boshlarida Farbiy Tyanshan tog' tizmalarida, Janubiy O'zbekistonning Bobotog', Ko'hitangtog', Boysuntog', Hisor tizmalarida soni keskin kamayib ketgan hayvonlardan ilvirs, qoplon, Buxoro tog' qo'yi, ko'ksug'ur, qizil bo'ri, tyanshan oq tirnoqli ayig'i, yo'l-yo'l sirtlon, turkiston silovsini, tog' qo'ylari, qizilqum qo'yi va b.ni tez-tez uchratish mumkin edi. Endilikda bu hayvonlarning aksariyat qismi qo'riqxonalarda maxsus ko'paytirilmoqda.

O'tgan asrning o'rtalarigacha keng tarqalgan qushlardan boltayutar, dasht lochini, pushti saqoqush, birqozon, jajji oqqush, marmarchurрак, oqbosh, o'rdak, burgutning to'rt turi, qumoy, qironqora, lochin, itolg'i, bizg'aldoq juda kamayib ketdi. Ko'plab hayvonlarning ekologik makoni bo'lmish tekislikdagi to'qaylarning

va tog'dagi o'rmonlarning qisqarib ketishi yovvoyi hayvonlarning qirilib ketishiga olib keldi.

O'lkadagi tabiiy ekologik sharoitning yomonlashuvi va inson omilining bevosita ta'sirida bir vaqtlar tabiatda erkin yashagan turon yo'lbarsi, qizil tulki, sirtlon, xachir kabi hayvonlar butunlay yo'qolib ketdi. O'rta Osiyo qoplani, old osiyo qoplani, chipor sirtlon (po'lta), ustyurt qo'yi, qora laylak, tuvaloq, shipun oqqushi, qum charx iloni, o'rta osiyo kobrasi, uzundum burgut kabi nodir hayvonlar butunlay tugab ketish xavfi ostida turibdi. Ustyurt qo'yi, buramashox qo'y (morxo'r), o'rta osiyo qunduzi, oqqush, yo'rg'a tuvaloq, kulanbaur, chipor kaltakesak kabi hayvonlarning ham tugab ketish xavfi kuchli. Keyingi vaqtda afg'on maynasining ko'payib ketishi oqibatida bulbul, qaldirg'och, chittak, xatto chumchuqlar ham ancha kamayib ketdi.

1997 yilda O'zbekistonda «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish haqida» qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 y. 1 apreldagi 139-son qarori bilan «Biologik rang-baranglikni saqlashning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi» ishlab chiqildi.

O'zbekistonda «Qizil kitob» 1983 yili chop etilgan, unga 22 tur sut emizuvchi, 31 tur qushlar, 5 tur sudralib yuruvchi va 5 xil baliqlar kiritilgan. Ularning eng asosiylari: jayron, qoplon, Buxoro bug'usi - xongul, irbis, Ustyurt qo'yi, arxar, oq va qora laylak, burgut, qirg'iy, boltayutar, lochin, itolg'i, ov turna, tuva-loq, bizg'aldoq, qum chumchug'i, echkiemar, Osiyo kobrasi, baxri ba-liq, mo'ylov baliq, Sirdaryo kurakburuni, shomshapalak, shalpan quloq, ko'rshapalak, oq suvsar va boshqalar.

3.2. Qo'riqxonalarda uchrovchi turlar

Ba'zi hisoblarga yuksak o'simliklarning umumiy soni 800-900 dan kam emas. Bunda O'rta Osiyo tog o'simliklarining xos belgilari ancha keng ko'zga tashlanadi. Qo'riqxona murakkabgullilar (*Compositae*), dukkaklilar (*Leguminosae*), krestgullilar (*Cruciferae*), ko'plab boshqililar, (*Gramineae*), soyabongullilar (*Umbelliferae*) va labgullilar (*Labiatae*)ra boy.

Dukkaklilar ichida ko'psonli astragallar (*Astragalus*) o'rinlidir, Ularning 70 turi topilgan, buning ustiga ularning 6 tasi G'arbiy Xisorda, 2 tasi faqat Xisor qo'riqxonasida uchraydi.

Faqat qo'riqxona hududida karraklarning beshta turi uchraydi. Qo'riqxonada ko'pchilik endemiklar populyasiyasi yaxshi saqlangan. Xisor qo'riqxonasining ayniqsa Toshqo'rg'on qishloq maydonida, Qizilsuv uchastkasining quyi chegaralarida va CHakmonqo'ydi tog' massivining Tanhozdaryo va Qizildaryo suv ayirgichlarida endemik turlar ko'p ro'yxatga olingan.

Palearktika chegarasidagi O'rta Osiyo togpari mustaqil zoogeografik O'rta Osiyo Tog'lari viloya- tini tashkil etadi. SHimoli-G'arbiy Xisor uning kuyidagi ikki uchastkasi tutashgan erda joylashgan: G'arbiy-Tyanshan va Tojikiston. O'rta Osiyo tog'liklari boshqa tumanlaridagi kabi SHimo- li- G'arbiy Xisorda palsarkgik fauna elementlari qadimgi O'rta yer dengizi, Eron-Turon, O'rta Osiyo, shuningdek, ancha janubiy hindu-ximoloy va sharqiy-Osiyonikiga mos keladi.

Hudud hayvonot dunyosi kam o'rganilgan. Lekin, berilgan ma'lumotlarga ko'ra umurtqalilarning 268 ta turi xisobga olingan. Qo'riqxona suv havzalarida ikki xil baliq, 19 turdagi quruqlik va suvda yashovchi va sudralib yuruvchi jonzorlar,

Surhon qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan Buxoro bug'usini saqlash maqsadida tashkil qilingan edi.

Morxo'rlar, Buxoro tog' qo'yi, qushlardan: burgut, boltayutar va boshqalar, shuningdek, morxo'r va qo'yni ovlash tasvirlangan jahon ahamiyatiga molik Zarautkamar noyob arxeologik yodgorligi muhofaza etilgan.

Ko'hitangda 749 turdagi yuksak o'simliklar ro'yxatga olingan, ular 269 turkum va 55 oilaga mansub. Ulardan 22 turi Uzbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan. 2006 yilda ko'riqxonada quyidagilar aniqlandi: 28 turdagi suv o'tlari, 35 turdagi qo'ziqorinlar, 15-lishayniklar, 3-moxlilar, 3-qirqkuloqlilar, 1-yalangochurug'lilar va 578-yopikurug'lilar. Ko'hitang o'simliklar olami F.Hasanov (1987) tomonidan vertikal taqsimlanadi va to'rtta mintaqaga va beshinchisi qo'shimcha o'rmon qurilish materiallariga bo'linadi.

Qo'riqxonada faunasi murakkab yagona kompleksga ega bo'lib, O'rta Osiyo tog'larining tabiiy sharoitiga moslashgan. Qo'riqxonada to'liq ma'lum bo'lmagan quyidagi xayvonlar turlari aniqlangan:

Hasharotlar -32 turda, Baliqlar-2 turda, Amfibiyalar- 2 turda, Reptiliyalarda-26 turda, Qushlar-102 turda, Sut emizuvchilar -24 turda.

O'zbekiston Respublikasi va TMXI Qizil Kitobiga kiritilgan noyob turlar: Reptiliyalarda, Qorako'zli kaltakesak, Qoraboshli boyga, Kulrang echkema, Afg'on litorixi, O'rta Osiyo kobrasi, Qushlardan Turkiston oq laylagi, Turkiston kora laylagi, boltayutar, oqboshli qumoy, qorakalxat, ilonxo'r. Sutemizuvchilardan Oqqorinli oqquloq, Turkiston silovsini, Buramashoxli echki – morxo'r, Buxoro kuyi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda tabiiy sharoitni asl holicha saqlab qolish va uni muhofaza qilish ishlari O'zbekistonning mustaqillik yillaridan boshlab jadal olib borilmoqda. Bu birinchi navbatda O'zbekistonning davlat siyosatini to'g'ri yuritilishi bilan izohlansa, ikkinchi navbatda mamlakatimizda yashovchi o'zbek xalqining ona tabiatni qadimdan ardoqlab kelishidadir. Bu holat hatto xalqimizning urf-odat va an'analarida ham yaqqol aks etib turadi.

Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgach tabiatni asrash va uni muhofaza qilish ishlarini davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu borada keng ko'lamli islohotlar olib bormoqda. Tabiatni muhofaza qilishga doir juda ko'plab qonun va qarorlar, huquqiy me'yoriy xujjatlar qabul qilingan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003 y, 9-10-son, 71-modda; 2004 y, 43-son, 456-modda; 52-son, 523-modda; 2005 y, 19-20-son, 142-modda; 2006 y, 6-7-son, 34-modda; 7-son, 400-modda; 2010 y, 5-son, 40-modda; 2010 y, 14-15-son, 106-moddalari, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 1-con, 1-modda, qishloq va suv xo'jaligi vazirligining o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi huzurida manzarali bog'dorchilik va o'rmon xo'jaligi respublika ilmiy-ishlab chiqarish markazini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 8-9-son, 68-modda; 2009 y., 25-son, 287-modda, 2004 yilda bioresurslardan foydalanish me'yorlari haqida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 14-son, 171-modda, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 1-son, 2-modda, Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish

to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 6-7-son, 34-modda, 2008—2012 yillarda o'zbekiston respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 37-38-son, 382-moddalar shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda qo'riqxonalarining tashkil etilishi va ularga asoslangan holda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning tashkil etilib, kengatirilishi Respublikamiz hududi tabiatini muhofaza qilishda beqiyos o'ringa ega. Qo'riqxonalardan tashqari milliy bog'lar, buyurtmaxonalar va shu kabi hududlar asosan qo'riqxonalarga asoslangan holda olib borilmoqda. Shu sababli mamlakatimizda qo'riqxonalarni rivojlantirish va kengaytirish tabiatni muhofaza qilishdagi bajarilishi shart bo'lgan asosiy faoliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr busagasida xavsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.2008
3. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. T. O‘qituvchi. 1983 y.
4. Egamberdiyev R. Ekologiya. T. 1993 y.
5. Ekologiya. Oxrana prirodo. Ekologicheskaya bezopasnost. Pod. obh. red. prof. Nikitina A.T., prof. MNEPU Stepanova S.A. M.: Izd. MNEPU «Nov». 2000.
6. Ergashev A. “Umummiy ekologiya” T. O‘qit.
7. Ergashev A. Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent “yangi asr avlodi” 2005 y. T. O‘qituvchi .1994.
8. G‘ulomov P. Inson va tabiat. T. O‘qituvchi. 1990.
9. Isachenko A.G. Optimizatsiya okrujayuhey sreda’. M.: Vo’sshaya shkola. 1990.
10. Nigmatov A.N. O‘zbekiston Respublikasining ekologiya huquqi. T.: TDYuI nashriyoti.2004.
11. O‘zbekiston «Ekologiya xabarnomasi» jurnali sonlari.
12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O‘zbekiston 1992.
13. Otaboyev S. Nabiyeu M. Inson va biosfera. T. O‘qituvchi . 1995. 307 b.
14. Reymers N.F. Prirodopolzovanie. Slovar-spravochnik. M.: Vo’sshaya shkola. 1999.
15. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. O‘qituvchi. 1994.
16. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. Qarshi. “Nasaf” 2003 y.
17. To‘xtayev A, Xamidov A, Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. O‘qituvchi .1994.
18. To‘xtaev A. Ekologiya. T., “O‘qituvchi” 1998 y.
19. Usmonov M.B., Rustamboev M.X., Xolmuminov J.T. va boshk. Ekologiya xukuki. T.: “Uzbekiston yozuvchilar uyushmasi” 2001 y.

20. Xolmurodov N. Surxondaryo tabiati va uning muxofazasi. T. “Chinor” 1998 y.
21. Yasamanov N.A. Osnovo’ geoeologii. M.: Akademiya. 2003. – 352 s.
22. Yormatov D. Norqulov A. Avazov Sh. Sultonov N. Sanoat ekologiyasi «O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti. Toshkent 2007 y.
23. Zvonkova T.V. Geograficheskoe prognozirovanie. M.: Vo’sshaya shkola. 1987.